



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

MAKTAB VA MAHALLA HAMKORLIGI: INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH OMILI SIFATIDA

Rasulov Jamshidbek Maxammadimin o'g'li
Andijon davlat pedagogika instituti, mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya

Maktab va mahalla hamkorligining ijtimoiy falsafiy xususiyatlari ularning xalqimiz ijtimoiy hayotidagi azaliy va bugungi kunda esa muhim ijtimoiy institutlar ekanligidan kelib chiqadi. Mazkur maqolada ushbu ijtimoiy institutlar hamkorligining inson kapitalini rivojlantirishdagi asosiy xususiyatlari ochib beriladi.

Kalit so'zlar: maktab, mahalla, jamiyat, ta'lim, tarbiya, ijtimoiy institutlar, ijtimoiy munosabatlar.

СОТРУДНИЧЕСТВО ШКОЛЫ И МАХАЛЛЫ: КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА

Расулов Жамшидбек Махаммадимин угли
Андижанский государственный педагогический институт, независимый исследователь

Аннотация

Социально-философские особенности сотрудничества школы и махаллы обусловлены тем, что они являются традиционными и сегодня важными социальными институтами в общественной жизни нашего народа. В данной статье раскрываются основные особенности сотрудничества этих социальных институтов в развитии человеческого капитала.

Ключевые слова: школа, махалля, общество, образование, воспитание, социальные институты, социальные отношения.

SCHOOL-MAHALLA COLLABORATION: AS A FACTOR IN HUMAN CAPITAL DEVELOPMENT

Rasulov Jamshidbek Maxammadimin o'g'li
Andijan State Pedagogical Institute, Independent Researcher

Abstract

The socio-philosophical characteristics of school-mahalla collaboration stem from the fact that these institutions are traditional and still remain important in the public life of our nation. This article explores the key aspects of collaboration between these social institutions in the development of human capital.

Keywords: school, mahalla, society, education, upbringing, social institutions, social relations.

Zamonaviy jamiyatda inson tarbiyasi va ma'naviy yetukligini ta'minlash masalasi tobora dolzarb tus olmoqda. Globallashuv, axborot oqimining kuchayishi, qadriyatlar tizimidagi o'zgarishlar shaxsning shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Bunday murakkab ijtimoiy sharoitda oila, mahalla va maktab ijtimoiy determinantlar sifatida shaxsning ma'naviy-axloqiy rivojida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Oila — bu shaxsning dastlabki ijtimoiy tajribasi shakllanadigan makon, mahalla — jamoaviylik va fuqarolik ongining poydevori, maktab esa bilim va ongli tafakkurning shakllanish maydonidir. Ularning o'zaro hamkorligi va uyg'unligi nafaqat sog'lom shaxs, balki barqaror jamiyatni vujudga keltiradi. Shu bois ushbu uchlikning o'zaro aloqalari va ular orqali shakllanuvchi ijtimoiy jarayonlarni falsafiy yondashuv asosida o'rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Ushbu mavzuni tanlashga sabab — zamonaviy ijtimoiy muammolar va ularni bartaraf etishda an'anaviy institutlarning rolini yangicha falsafiy nuqtayi nazardan tahlil qilish zaruratidir.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev to'g'ri ta'kidlaganidek: “Mahalla va yaxshi qo'shnichilik o'zaro uyg'un qadriyatlardir. Ular jamiyatda insoniy va ijtimoiy kapitalni yanada boyitishga beqiyos hissa qo'shadi. Mamlakatimizda o'tkazilgan ijtimoiy so'rovlarda ishtirok etganlarning 90 foizdan ko'prog'i o'zini mahalla jamoasining bir qismi deb hisoblashi ham shundan dalolat beradi. Barchamiz uchun ham ota, ham ona bo'lgan mahallaga, shu asosda Vatan taqdiriga daxldorlik tuyg'usining yuqoriligi ushbu institut avvalo ijtimoiy birdamlik manbai ekanini ko'rsatadi” [1].

Bugungi yangilanayotgan jamiyatda inson kapitalini shakllantirish va rivojlantirish muhim nazariy va amaliy zaruratga aylanmoqda. Inson kapitali shaxsning bilim, iqtidor va salohiyatlarini amaliyotda qo'llovchi strategik resurs sifatida iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotning asosiy omillaridan hisoblanadi. Shu munosabat bilan ta'lim tizimining boshqa ijtimoiy institutlar bilan hamkorlik aloqasini yangi davrga olib chiqish masalasi zamonaviy tadqiqotlarning markazida turibdi.

Maktab va mahalla hamkorligi inson kapitali rivojlanishining drayveri bo'lib, yosh avlod kamolotida muhim ahamiyatga ega. Maktab insonning intellektual rivojlanishi uchun, mahalla esa uni amaliyotda qo'llash uchun zamin vazifasini bajaradi. Mazkur ikki institutning uyg'unligi inson kapitalini yaratish va uning rivojlanishi uchun muhim shart-sharoitlarni yaratadi.

Bizningcha, maktab va mahalla hamkorligida inson kapitalini rivojlantirish masalasida innovatsion yondashuvlar ishlab chiqish lozim, bunda quyidagilarni e'tiborga olish zarur:

Birinchidan, ilgari maktab va mahalla alohida ijtimoiy institutlar sifatida tadqiq etilgan bo'lsa, endilikda ularni yaxlit kompleks tizim sifatida qabul qilish lozim. Inson kapitalini rivojlantirishning institutsional modellari orqali mahalla-maktabning unga integral ta'sirini tadqiq etish zarur.

Ikkinchidan, maktab va mahallaning samarali hamkorligi individual inson kapitalini rivojlantirish bilan bir qatorda ijtimoiy kapital taraqqiyotiga xizmat qiladi. Yangilanayotgan jamiyatda an'anaviy ta'limdan farqli o'laroq, mahalla hamkorligida olib borilayotgan islohotlar yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish bilan birga ularda jamoaviy birdamlikni ham shakllantiradi.

Uchinchidan, mazkur hamkorlikda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali o'zaro axborot almashinuvi uchun platforma yaratish lozim. Bu real ko'rsatkichlarga asoslanib, kelgusi faoliyat uchun chora-tadbirlar ishlab chiqishda mukammal resurs vazifasini o'taydi.

To'rtinchidan, hamkorlikda vujudga kelgan muammolarni joyida tahlil qilib, ularning yechimlari bo'yicha birgalikda ilmiy asosga ega tavsiyalar ishlab chiqish, jumladan, ijtimoiy muvofiqlik mexanizmlarini yaratish, mahalla faollari va maktab jamoasi hamkorligi uchun yangi ijtimoiy tarmoqlar tashkil qilish lozim.

Inson kapitalini tadqiq etgan olimlar Gari Bekker [2], Teodor Shults [3] va ularning izdoshlari mikroiqtisodiy ko'rsatkichlarda inson xatti-harakatining ta'sirini ilmiy asoslarda keltirib beradilar. Ko'pchilik G'arb tadqiqotchi olimlari fikriga tayanib aytish mumkinki, inson kapitali — odamlar egallagan va vaqt davomida moddiy-nomoddiy ishlab chiqarish uchun sarflagan bilim, tajriba va energiya majmuini qamrab olgan tushunchadir. Inson kapitali investitsiya, ta'lim, ishlab chiqarish, sog'liqni saqlash, harakatchanlik kabi tushunchalarni qamrab oladi.

Olimlarning tadqiqotlarida asosiy e'tibor insoniyatning ishlab chiqarish qobiliyatlariga va uning natijasida kelib chiqadigan daromad farqlariga qaratildi. Ularning tadqiqotlari ijtimoiy-iqtisodiy hayotda chinakam burilish yasadi. Ular bir martalik ko'rsatkichlarga asoslanib, insonning butun hayot davomiyligidagi taraqqiyot siklini qamrab oluvchi darajalarga o'tish imkoniyatlarini taqdim etdi. Inson kapitali tahlilida shu ahamiyatliki, unda shaxsning daromadlari va yoshga doir dinamikasi, erkak va ayollar ish haqi tengsizligi, migratsiya oqimlarining sabablari va boshqa bir necha hodisalarni tushuntirishga imkon yaratiladi. Mazkur amaliyot tufayli ta'lim investitsiyalari ham oddiygina emas, iqtisodiy o'sish asosi sifatida qaraladi.

Inson kapitali umumiy kapitalning bir shaklidir, u kelajakda olinadigan daromad manbai hisoblanadi.

Inson kapitalini tadqiq etayotgan olimlar ta'limdan olingan iqtisodiy daromad uning kasbiy darajasining oshishi hisobiga yuzaga kelishini ta'kidlashadi. Bu yo'nalishning muxolif vakillari P. Taubman [4], R. Herrnshteyn [5;60] va boshqalar inson qobiliyatlarini differensiallashtirishda asosiy rolni irsiyat, biologik omil deb hisoblashadi.

Boshqa bir olimlar L. Tyurov, M. Boniman va boshqalar [6] esa inson kapitalini, birinchidan, modern ishchining imkoniyatlar yig'indisi, ikkinchidan, davlat va shaxsning bu qobiliyatlarini shakllantirishga sarflagan mablag'lari yig'indisi sifatida tushuntiradilar. Inson taraqqiyoti tamoyili davlat iste'mol tengligini nazarda tutmay, aksincha, imkoniyatlar tengligini, avvalo, ta'lim tizimida, tibbiyotda ehtiyojlarni qondirish, shaxsiy xavfsizlikni ta'minlash, huquqlarga, shuningdek, iqtisodiy tizim rivojlanishi va samarali faoliyat uchun yetarli sharoitlarni yaratishga mas'ul ekanligi bilan ifodalanadi.

Inson kapitalining rivojlanib borish darajasi har bir davlatning jahon iqtisodiyotida o'z mavqeyini va taraqqiyot qobiliyatlarini belgilab beradi. "Inson kapitalining raqobatbardoshligi bugungi kunda mavjud bo'lgan milliy iqtisodiyotlarning raqobatbardoshligi mezonlari ro'yxatiga kiritilgan" [7;249].

Inson kapitali konsepsiyasi asosida amalga oshirilayotgan insonga va uning oqilona xulq-atvoriga

oid ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar rivojlangan mamlakatlar bozor iqtisodiyoti amaliyotlarida keng qo'llanilmoqda. Ko'plab xorijiy olimlar ta'limga yo'naltirilgan investitsiyalar hamda kapitallar milliy taraqqiyotning asosiy manbai deb hisoblaydi. Shuning uchun inson kapitali tamoyili nuqtayi nazaridan yuqori ma'lumotli, malakali ishchi kuchi eskirgan amaliyotga qaraganda afzalroq va qimmatliroq ishlab chiqarish resursidir. Buning natijasida yuksak taraqqiy etgan mamlakatlarda e'tibor asosan iqtisodiy taraqqiyotdan inson kapitaliga sarmoya shakliga ko'chdi. Yangilanayotgan O'zbekistonda taraqqiyot "inson taraqqiyoti uchun" tamoyili asosida amalga oshirilmoqda.

Falsafiy nuqtayi nazardan, inson kapitali shunchaki mehnatga yo'naltirilgan bilim va ko'nikmalar yig'indisi emas, balki insonning ichki olami, axloqi, ongli faoliyatining jamiyatdagi in'ikosi sifatida qaraladi. Mazkur yondashuvda inson o'z hayotida faol ishtirokchi, jamiyat taraqqiyoti uchun ma'naviy va madaniy kuch sifatida ko'rinadi.

Bizningcha, eng maqbuli, inson kapitali bilimlar asosida harakatchanlikni oshiradigan va shaxs kamoloti yo'lida ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa ijtimoiy sohalar bilan iqtisodiy samaradorlikka erishish mumkin bo'lgan voqelikdir. Keng ma'noda taraqqiyotdagi investitsiyalar, ta'lim turlari, ishlab chiqarish amaliyoti, sog'liqni saqlash, migratsiyalar oqimi, mehnat bozoridagi munosabatlar, tug'ilish va tarbiya masalalari hisoblanadi. Boshlang'ich maktab ta'limi, mahalla va ish joyi inson kapitalining hajmini oshirib, uning uzoq muddatli faoliyatiga asos yaratadi. O'zbekistonda iqtisodiyotni innovatsion rivojlanish modeliga o'tish, xususan, "yashil iqtisodiyot"ni qo'llab-quvvatlash, davlat budjeti xarajatlarini ko'proq ijtimoiy sohalarga, ya'ni ta'lim, tibbiyot, ilm-fan, kommunikatsion texnologiyalarga yo'naltirishni qamrab oladi. Chunki global axborotlashuv zamoni yuqori darajada ta'lim va ilmni talab qilmoqda.

Jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy qiyofasi qanday bo'lsa, inson kapitali ham unga monand ravishda rivojlanadi. Inson aql va idrok egasi bo'lganligi sababli real jarayonlarda sodir bo'layotgan voqealarni tushunadi, kuzatadi. Ilm-ma'rifat, sa'y-harakat, salohiyat orqali dunyoni boshqaradi. Inson kapitalining taraqqiyotiga uning jamiyatdagi ijtimoiy muhit hodisalari va voqealar ta'sir qiladi.

Bugungi zamon talabiga mos innovatsion inson kapitalini shakllantirish uchun mamlakatdagi har bir oila, mahalla hamda unda tarbiyalanayotgan farzandlarni kichik yosh davrlaridan boshlab ilm o'rganishga qiziqtirish, qalbida ma'rifatga muhabbat, mehnatga sadoqat tuyg'ularini uyg'otib borish maqsadga muvofiq. Ularni yangi texnologiyalar, jahon talabiga javob beradigan darsliklar bilan o'qitib borish, xorijiy tillarni o'rgatish lozim. Bolalikdan to'g'ri berilmagan ta'lim va tarbiya kelajakda ishsizlik va kambag'allikni keltirib chiqaradi. Qashshoqlik faqat pul yo'qligi bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy voqelik emas.

Bilimlar tabiat va jamiyatda mavjud bo'lgan bor imkoniyatlardan to'g'ri va samarali foydalanishni, uni amaliyotda qo'llash esa ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlaydi. Bu jarayonlar, o'z navbatida, ta'limni moliyalashtirishni taqozo qiladi.

Inson kapitali rivojlanish darajasini bir qator omillarga asoslangan holda baholash mumkin. An'anaga binoan, tadqiqotchilar buni asosan ta'lim olgan insonlarning daromadi bilan bog'lashadi. Tadqiqotlar aniqlashicha, inson umridagi har bir ta'lim yili uning daromadini 10 foizga oshiradi deb hisoblashadi. Bundan tashqari, ta'limga kiritilgan sarmoyalar jamiyatda ijtimoiy tengsizlikning kamayishiga xizmat qiladi. Mamlakatdagi nisbatan boy oilalardagi farzandlar yoshligidan keng imkoniyatlarga ega bo'ladi va undan foydalanishni boshlaydi hamda qator afzalliklar va qulayliklarga ega bo'ladi. Aksincha, moliyaviy ahvoli og'ir oila farzandlari bu kabi imkoniyatlardan foydalana olmaydi. Shuning uchun inson kapitalidagi eng asosiy fenomen bu ta'limdir. Ta'lim nochor oila farzandlarini ham qiyin vaziyatlardan olib chiqadi. Mukammal inson kapitalini shakllantirish, albatta, sifatli ta'lim tizimiga bog'liq. Bugungi oliy ta'limda kadrlar diplom uchun emas, zamonaviy mutaxassis, raqobatbardosh, yangi davr ruhiyatiga monand fazilatlar egasi bo'lish uchun tayyorlanishi zarur, chunki bunday kadrlarga har joyda yuqori talab mavjud.

Bizningcha, O'zbekiston sharoitida inson kapitalini rivojlantirish manbalari va omillari tahliliga ko'ra, uning taraqqiyotida, avvalo, mahalliy darajadagi investitsiyalar muhim sanaladi. Sababi shuki, inson kapitalining ilk debochalari va tarkibiy qismlari aynan mahalla kiritadigan investitsiya orqali shakllantirilishi ijobiy natijalarga olib keladi. Bunda natijadorlikning asosiy mas'uliyati mahalla va maktab kengashlarida bo'ladi. Insonning aqliy va ruhiy qobiliyatlarining maktab va mahalla muhiti ta'sirida rivojlanishi inson kapitalining doimiy takomillashib borishiga zamin yaratadi.

Yangilanayotgan jamiyatdagi har bir oila ijtimoiy munosabatlarni o'ziga munosib tarzda namoyon qiladi. Mahallaning ham bolaga ta'siri spetsifik bo'lgani sababli uning ma'nan va axloqan gavdalanishi o'ziga xos va takrorlanmasdir. Kapital va resurs manbalari paydo bo'lishida mahallaning o'rni

beqiyosdir. O'z navbatida, mahalladagi sog'lom muhit va yoshlar uchun investitsiya oilalarning farovonlik indeksida yuqori ahamiyatga ega. Mikro darajadagi omil bu oila bo'lib, u birlamchi ijtimoiy munosabatlarda asosiy elementdir. Tadqiqotlarga asosan, oila inson kapitalini shakllantirishda "sotsializator" vazifasini o'taydi. Agar oila, mahalla va maktab turli qadriyatlar hamda stereotiplar tizimini tarqatadigan bo'lsa, bu raqobatda, albatta, mahalla g'olib chiqadi. Chunki mahalladagi tarbiya keng qamrovli va davomlidir. U nafaqat ongli, balki ongsiz darajada ham ta'sir o'tkazadi.

Inson kapitali yakka shaxs qamrovida olib qaralganda, bunda asosiy investor kapital egasining o'zidir. Inson kapitaliga sarmoya kiritish ishonch darajasini ham mustahkamlaydi. Ziyoli insonlar jamiyatda boshqalarga ko'proq ishonadi, ishonch yuqori bo'lgan jamiyat esa odatda yuqori iqtisodiy sur'atlarga erishadi. Mamlakatimizda sohaga oid rivojlanish natijasida yangi innovatsion muhit, ijtimoiy qulay sharoit, ma'naviy va axloqiy qadriyatlarga asoslangan inson kapitali vujudga keldi.

Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Bundan buyon faoliyatimizni mutlaqo yangicha, ya'ni 'inson — jamiyat — davlat' tamoyili asosida tashkil etamiz" [8;10]. Bu maqsadlarning ro'yobga chiqishi uchun esa o'ziga xos demokratik tuzilma — mahalla institutiga ulkan imkoniyatlar yaratish, vakolatlarini yanada kengaytirish, uni jamiyatimizda hal qiluvchi bo'g'inga aylantirish zaruratga aylanadi.

Tadqiqotchi olimlar G. P. Gulyamova hamda R. B. Murtazina o'z amaliyotlarida buni quyidagicha ifodalaydi: "Inson kapitalining asosi — bu maktab, oliy o'quv yurti yoki boshqa ta'lim muassasalarida ta'lim olish jarayonida shakllanadigan va jamg'ariladigan bilim, ko'nikma, malaka va qobiliyatlarning to'plami bo'lib, ular hali mehnat faoliyatida to'liq qo'llanilmagan bo'ladi" [10].

Xulosa sifatida aytganda, inson kapitali tuzilmasi o'zini to'liq va adekvat namoyon etishi uchun maktab ta'limiga oid tadqiqotlarga ehtiyoj sezadi. Chunki bu davrda inson intellektual va amaliy salohiyatining asosini maksimal darajada egallaydi, bu esa uning kelajakdagi muvaffaqiyatlari garovi hisoblanadi. Ayni paytda, maktab va mahalla munosabatlarini ijtimoiy-falsafiy jihatdan tadqiq etishda har ikkala institutning azaliy va yangilanayotgan ijtimoiy funksiyalarining o'zaro bog'liqligi hamda bu munosabatlar zanjiri markazida shaxs kamoloti, bugungi kunda esa shaxs kapitali masalasi yotganligiga alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. – 26.12.2025. – URL: <https://president.uz/uz/lists/view/8834>
2. Becker G. S. Human capital: A theoretical and empirical analysis. – New York: Columbia University Press for NBER, 1964.
3. Schultz T. W. Capital formation by education // *Journal of Political Economy*. – 1960. – Vol. 68.
4. Taubman P. The relative influence of inheritable and environmental factors in earnings functions // *Personal income distribution* / ed. W. Krelle. – Amsterdam, 1978.
5. Herrnstein R. J. Q. IQ // *Atlantic Monthly*. – 1971. – Vol. 228.
6. Туроу Л. Будущее капитализма. – 1997.
7. Исмаилова М. А. Современные аспекты исследования человеческого капитала // *Проблемы устойчивого экономического развития в условиях углубления рыночных реформ в Узбекистане*. – Ташкент, 2004. – С. 249.
8. Мирзиёев Ш. М. Инсонпарварлик, эзгулик ва бунёдкорлик – миллий ғоямиз пойдеворидир. – Тошкент: Tasvir, 2021. – Б. 10.
9. Гулямова Г. П., Муртазина Р. Б. Теоретические школы исследования человеческого капитала // *Трансформация экономической системы и проблемы формирования конкурентной среды в Узбекистане*. – Ташкент, 2005.